

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

«BH va Audit» kafedrası mudiri v.b.

dots. R.Omonov

« 16 » 06 2014 yil

«TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakulteti dekani

r.f.d. A.F.Xurramov

2014 yil

Davlat byudjeti g‘azna ijrosining funksiyalari va uning istiqbollari
(Kitob tumani g‘aznachilik bo‘limi misolida)
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: «G‘aznachilik» ta‘lim
yo‘nalishi bitiruvchisi IV kurs G‘-467
guruh talabasi Maxmudov
Asliddin Fazliddin o‘g‘li


ILMIY RAHBAR:
«BH va A» kafedrası katta o‘qituvchisi
Azimova X.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

16 sonli bayonnoma « 16 » 06 2014 y.

QARSHI – 2014 yil

18 06 14
27

“Тасдиқлайман”
“БХ ва А” кафедраси мудири в.б.
 **С.Эгамбердиева**
“ 14 ” 01 ” 2014 йил

**Мавзу: Давлат бюджети ғазна ижросининг функциялари ва унинг
истикболлари
(Китоб тумани ғазначилик бўлими мисолида)**

РЕЖА:

Кириш

I-боб. Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетининг ғазна ижросини ташкил этиш.

- 1.1. Давлат бюджети ғазна ижросининг моҳияти.
- 1.2. Давлат бюджетининг ғазна ижроси тизимини жорий этиш босқичлари.
- 1.3. Ғазначиликнинг функциялари ва вазифалари.

II-боб. Давлат бюджетининг ғазна ижроси функциялари.

- 2.1. Ғазначилик тизимида тўловларни амалга ошириш тартиби.
- 2.2. Китоб тумани ғазначилик бўлимида давлат бюджети ғазна ижросининг ҳолати таҳлили.


III-боб. Давлат бюджети ғазна ижросини такомиллаштириш масалалари.

Хулоса ва таклифлар.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати.

Иловалар.

Илмий раҳбар:



кат.ўқит.Х.Азимова

Ғ-467 гуруҳ талабаси:



А.Махмудов

QARSHI MUHANDISLIK –IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI

5341700 – “Gaznachilik ta’lim yo’nalishi bitiruvchi talabasi Elarmudova
Asfiddin ning bitiruv malakaviy ishi

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: Davlat byudjeti gazna ijrosining
funktsiyalari va uning istiqbollari
(Xotob tumani gaznachilik bōlimi misolida).

Malakaviy ishning hajmi: 94

A) yozma izoh qismi: varaqlar soni 90

B) grafik qismi: chizmalar soni: 4

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi

Davlat byudjeti gazna ijrosining joriy etilishi,
gaznachilik tizimida tōlovlarini amalga oshirish
tartibi, davlat byudjeti xarajatlar samaradorligini
oshirish va maqsadli sarflash byudjet barqarorligini
ta’minlashga ijobiy ta’sir etadi va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Malakaviy ishning yozma izoh va grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati

BMT ni yozishda belgilangan reja asosida
yoʻzilib 3ta bob, xulosa va takliflar berilgan.
BMT ni yozishda BMTga oid gōllanma va
ma’lumotlar, jurnallar va internet saytlaridan
foydalanilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg’or tajriba natijalaridan foydalanilganligi

Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, qarorlari, farmonlari,
darstlik, oʻquv gōllanma va maqolalar, gaznachilik
bōlimining ma’lumotlaridan keng foydalanilgan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari BMT aniq ma’lumotlar
asosida jadvallar tuzilib tahlil qilinganligi
ishning ijobiy tomoni deb qarashimiz muhim.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal 100-ball) va xulosa
BMT himoyaga tavsiya etiladi va 68 ballga baholandi.

Malakaviy ish rahbari

Elarmudova H.
(F.I.SH)

“ 16 ” 06 2014 yil

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
"BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT" KAFEDRASI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

"TASDIQLAYMAN"
"BX va A" kafedrası mudiri v.b.
S.Egamberdiyeva
"14" 01 2014 y.

Talaba: Maxmudov Asiddin

Ta'lim yo'nalishi: 5341700 – "G'aznachilik"

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Davlat budjeti qaxna ijronining funksiyalari va uning itigbol-lari (Xitob tumari qaxnachilik bolimi moolida)
2. Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tilgan joy: Xitob tumari qaxnachilik bolimi
3. Bitiruv malakaviy ishi rahbari: "BX va A" kafedrası katta ogit. A. Asimova
4. Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Davlat budjeti qaxna ijronining funksiyalari va uning itigbollari ni belgilash-dan iborat.
5. Ish rejasi:

Bitiruv malakaviy ishi bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi bo'limi nomi	Bajarish muddati
Kirish	<u>ma'ruzaning dolzarbligi</u>	<u>20.01.2014</u> <u>01.02.2014</u>
I – Bob	<u>O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining qaxna ijroni tashkil etish</u>	<u>10.02.2014</u> <u>01.03.2014</u>
II – Bob	<u>Davlat budjetining qaxna ijron funksiyalari</u>	<u>10.03.2014</u> <u>05.04.2014</u>
III – Bob	<u>Davlat budjeti qaxna ijroni tabomillashtirish masalalari</u>	<u>14.04.2014</u> <u>03.05.2014</u>
Xulosa va takliflar	<u>Budjet samaradorligini oshirish</u>	<u>04.05.2014</u> <u>26.05.2014</u>
Foydalanilgan adabiyotlar	<u>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunlari, qarorlari, farmonlari</u>	<u>27.05.2014</u>

6. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

- a) adabiyot manbalari: Prezident qararlari va ma'ruzalari, ma'ruzaga oid adabiyotlar va oquv gollari, larnalari va internet saytlari
- b) qonuniy-meyoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari
- v) statistik va boshqa ma'lumotlar: Statistik ma'lumotlar, itisodiy ko'rsatkichlari
7. Tasvirlash materiallari: sholitik jadvallar, shizmalar
8. Topshiriq berilgan kun: 20.01.2014
9. Ishni topshirish muddati: 10.06.2014
10. Ilmiy rahbar: Egamberdiyeva A.

Kafedra mudirining bitiruv malakaviy ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi
Bitiruv malakaviy shi talab darajasida tayyorlangan va DAK ddido himoyaga tavsiya etiladi.

QARSHI MUHANDISLIK –IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI

5341700 – “Gaznachilik” ta’lim yo’nalishi bitiruvchi talabasi Muxomedov
Isliddin ning malakaviy bitiruv ishi

TAQRIZ

-Malakaviy ish mavzusi: Davlat budgeti boʻyicha
ijrosining funktsiyalari va uning istiqbolari
(Kitob tumani gaznachilik boʻlimi masdrda)

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi

Davlat budgeti boʻyicha ijrosining joriy etilishi,
gaznachilik tizimida tadbirlar amalga oshi-
rish tartibi, davlat budgeti xarajatlari samarador-
ligini oshirish va maqsadli sarflash budget
barqarorligini ta’minlashga ijobiy ta’sir etadi.

Malakaviy ishning yozma izoh va grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati

BMT ni yozishda foydalangan reja asosida
yozilib 3ta bob tuzilgan va takliflar beril-
gan. BMT ni yozishda BMT ga bid qoʻllan-
ma va ma’lumotlar jurnallar va internet
saytlaridan foydalanilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg’or tajriba natijalaridan foydalanganligi

Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari,
qarorlari, farmonlari, darslik, oʻqish qoʻllanma
va maqolalar, gaznachilik boʻlimining
ma’lumotlaridan keng foydalanilgan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari va kamchiliklari

BMT dnuq ma’lumotlaridan iborat
va ular asosida jadvallar tuzi-
lib tahlil qilinganligi ishning
ijobiy tomoni deb qarashimiz
muimkin.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal 100-ball) va xulosa

BMT himoyaga tavsiya etiladi va
68 ballga baholandi.

Taqrizchi:

(imzo)

Kitob tumani gaznachilik boʻlimi boshligi,
Amrullo Usmonov Usmonovich
mansabi, ish joyi, f.i.sh.

“ 19 ” 06 2014 yil.

KIRISH

Mavzunig dolzarbligi davlat iqtisodiyotini tartibga solish tizimi orqali iqtisodiy munosabatlarining barqaror rivojlanishini taminlaydi. Davlatning o'z vazifa va funksiyalarini bajarishga hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga imkon beradigan vositalardan biri Davlat byudjetidir.

Davlat byudjeti iqtisodiy vazifa sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishga son va sifat jihatdan ta'sir etishga qodir son jihatdan ta'sir etishga davlat byudjeti moliyaviy resurslarni proporsiyalar bilan taqsimlash bilan belgilansa sifat jihatdan ta'sir etish esa qayta ishlab chiqish jarayonida ishtirokchilarning moliyaviy holatiga moliyaviy munosabat shakllarini tashkil qilish bilan belgilanadi.

Davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul jamg'armalarining samarali ijrosi davlat yuritayotgan siyosatning muvaffaqiyatli bo'lishi imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridan mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8 % ga o'sgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 % ga qishloq xo'jaligi 6,8 % ga chakana savdo aylanmasi 14,8 % ga oshdi. Xususan 2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yukining soddalashtirilishi ya'ni 21,5 % dan 20,5 % ga jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 % dan 8 % ga tushirilganiga qaramasdan davlat byudjetu yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 % profissent bilan bajariladi. Ma'lumki mamlakat obodligi darajasini oshirish iqtisodiy rivojlanish orqali ta'minlanadi. Shu sababli iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvattlashga 2,8 trillion so'mlik mablag' ajratish ko'zda tutilgan, bu 2012 yilning tasdiqlangan parametirlariga nisbatan 22 % ga ko'pdir.

Davlatning moliyaviy resurslarining boshqarilishi va nazorat qilinishi hamda ularning byudjet pul mablag'larining tartibga solingan oqimini ta'minlash vakolatiga ega bo'lgan hokimyatning bir organida markazlashuvini ta'minlovchi yangi institutlarning tashkil etilishi o'z ichiga olgan davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish masalan eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Byudjet va pul muomilasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy holatining barometri hisoblanadi. Iqtisodiy barqororlik, ko'p jihatdan byudjet tizimining takomillashganiga byudjet ijrosi va byudjet sohasidagi o'zaro munosabatlar

optimallashtirishga barcha darajadagi byudjetlar nomunosibligini tenglashtirishning aniq ishlovchi mexanizmi barpo etilishicha bog'liq O'z navbatida rivojlanishning hozirgi bosqichida davlat siyosatining asosiy vazifalari quydagilardan iborat. Iqtisodiyotning barqarorlashtirish uning raqobatbardoshligini oshirish aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora tadbirlarni ko'rish; ijtimoiy nizolarning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik va hakoza ...Mamlakatda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish va byudjetning g'azna ijro tizimining tashkil etilishi ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga ko'maklashadi. Ijro etishning barcha darajalarida byudjetning sariflanishini nazorat qilish funksiyasini G'aznachlik organlari zimmasiga yuklatilgan muhim bir funksiyalardan biri hisoblanadi.

G'aznachlik organlari mavjud funksiyalarga muvofiq bosh taqsimlovchilari, byudjetdan mablag' oliuvchilar va ijro etilayotgan byudjetlar va davlat byudjetidan tashqari jag'armalarning byudjetlari bo'yicha byudjet jarayoni boshqa ishtirokchilarning byudjet mablag'lari bilan operatsiyalar bo'yicha oldindan va joriy nazoratni amalga oshiradi. Bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi..

I-bob. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining g'azna ijrosini tashkil qilish

1.1 Davlat byudjeti g'azna ijrosining mohiyati

Byudjet ijrosi-umuman va har bir manba bo'yicha daromadlarning to'liq hamda o'z vaqtida kelib tushishini, shuningdek byudjet tashkilotlari va muassasalarining tavarlari va xizmatlari uchun byudjet bo'yicha tasdiqlar summalar doirasida to'lovlarning moliyaviy yil davomida to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlovchi jarayondir.

Byudjet munosabarlarni takomillashtirish ko'p zihatdan davlat byudjeti ijrosining samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Joxon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, byudjet ijrosining uchta banklar tomonidan tashkil etilishi, byudjet hisobvaraqlarini banklar va g'azna organlari tomonidan boshqarilishi va to'liq g'azna organlari tomonidan amalga oshirilishi turlaridan g'azna ijrosi byudjet ijrosining eng samarali va amaliy mexanizmi hisoblanadi. Ya'ni unda byudjet daromadlari va xarajatlar bo'yicha barcha operatsiyalar byudjetining yagona hisobvarag'ida jamlanib u byudjetdan mablag' oliuvchilar tomondan bank muassasalarida ochilgan byudjet hisobvaraqlari orqali bajariladigan barcha funksiyalarni amalga oshiradi.

Davlat byudjetining g'azna tizimini joriy etish byudjetni daromadlari to'shimlarning to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini va pul oqimlarni samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Mazkur tizim bundan tashqari moliya resurslari boshqaruv qarorlarini qabul qilish byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash va byudjet tuzishni takomillashtirish va prognozlashtirish sifatini oshirada.

G'aznachilik davlat byudjetining ijrosini va davlat maqsadli jamg'armalari ham davlat daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi hamda davlat xarajatlarga moliyaviy resurslarni yetarli bo'lishini ta'minlash uchun ma'sul bo'lgan maxsus organdir.

Davlat byudjetinind g'azna ijrosi davlat byudjetinig barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan shuningdek davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraquadan to'lashdan iborat.

Yagona g'azna hisobvarag'i g'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib ushbu hisobvarqqa davlat byudjeti mablag'lari shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalarini mablag'lari hamda byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisobvarag'idan davlat byudjetida ular uchun mablag'lar nazarda tutilgan huquqiy va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi. Shuningdek davlat maqsadli jamg'armalaining xarajatlari amalga oshiriladi.

Yagona g'aznachilikdan foydalanish sharoitida g'aznachilik organlarinig faoliyati ko'rsatishi davlat byudjetining ijrosini sifat jihatdan yangi axborat texnologiyasi hisoblanib undan qo'ydagi holatlar muhim o'rin tutadi:

- davlat byudjetinig daromadlari va xarajatlarini YaG'Hda markazlashtirish;
- turli darajadagi byudjetlar daromadlarining hisobini yuritish operatsiyalarni bir hisobvaraqda markazlashtirish ularni byudjetlarning turli darajalari o'rtasida taqsimlash va markaziy g'aznachilik darajasida davlat byudjeti xarajatlarni amalga oshirish;
- davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari bo'yicha operatsiyalarni har kuni aks ettirish.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi barcha darajalarining byudjetlari kassaning yagonaligi tamoili asosida ijro etiladi. U barcha kelib tushuvchi daromadlar va tushumlarning byudjet taqchilligini moliyalash manbalardan yagona g'azna byudjeti hisobvarag'iga amalga oshirishni nazarda tutadi.

Byudjet operatsiyalari yagona g'azna hisobvarag'iga orqali amalga oshirish byudjet ijrosining har bir bosqichini to'liq hisobga olish va nazorat qilish imkonini beradi.

Byudjet hisobvaraqlarini ochish va yopish, ularning rejimini belgilash huquqi g'aznachilikka tegishli.

G'aznachilikning markaziy bankdagi hisob varaqlari, ular tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida yuritiladi. Byudjet hisobvaraqlarini ochish va yopish hamda ularning rejimini o'zgartirishga g'aznachilikning tegishli qarorsiz ruxsat etilmaydi.

Banklar g'aznachilik organlarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, shuningdek hisobvaraqlardan mablag'larni chiqara olmaydi.

Banklar g'aznachilik hisobvaraqlari bo'yicha ulardagi mablag'lar qoldig'i doirasida to'lov xujjatlari asosida mablag'larning o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishi hamda hisobdan chiqarilishi uchun javobgardirlar.

Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimi byudjetdan mablag' ajratish samaradorligini sezilarli darajada oshirib xarajatlarning aniq amalga oshirilishini ta'minlaydi va moliyaviy operatsiyalar uchun vaqt hamda mablag'lar sarfini kamaytirgan holda ushbu operatsiyalarni tezlashtiradi.

G'aznachilik tizimi tashkil etilgunga qadar va u tashkil etilganidan keyingi davrda soliq to'lovchilardan daromadlar kelib tushishi va byudjet mablag'larining ularni oluvchilarga yetkazilishi jarayonining qiyosiy tahlili ikkinchi holatda byudjet mablag'lari bilan ishlashda ishtirok etuvchi bo'g'inlar soning kamayishi va ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Bunda g'aznachilik yagona hisobvarag'idan davlat byudjetidan mablag' oluvchilarning xarajatlarini to'lash, to'lov jarayononi nazorat qilibgina qolmay, balki byudjet mablag'lardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Byudjet ijrosi qonun chiqaruvchi hokimyat organlari tomonidan byudjet tasdiqlanganidan keyin boshlanadi.

Byudjet jarayonining ushbu bosquchi barcha darajadagi byudjetlarning daromd va xarajat qismlarni bajrish vazifasini qo'yadi.

Byudjet ijrosining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Soliqlar va boshqa to'lovlarning shuningdek umuman va har bir manba bo'yicha daromadlarning yo'liq hamda o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlaydi:

- byudjet tasdiqlangan moliyaviy yil davomida byudjet bo'yicha tasdiqlangan summalar doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish;

- tasdiqlangan byudjetning barcha turdagi to'lovlari va mablag'lari ajratilishini to'g'ri iqtisodiy asoslangan tarzda taqsimlash.

Byudjet ijro etish byudjet bo'yicha barcha ko'zda tutilgan daromadlarning to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi ta'minlashni hamda byudjet bo'yicha rejalashtirilgan xarajatlarning to'lashini taminlashni anglatadi anglatadi. Byudjet ijrosini Molliya vazirligi G'aznachiligi organlarining butun tizimi moliya organlari bilan birgalikda ta'minlaydi. Byudjetni ijro etish jarayonida moliya vazirligi makroiqtisodiy omillar, narxlar dinamikasi va davlat byudjetiga daromadlarning kelib tushishini hisobga olgan holda byudjet mablag'lari ajratilishiga tuzatishlar kiritib, Davlat byudjetlarining ijrosi va byudjetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli foydalanishi ustidan nazorat qiladi. Byudjetni ijro etish jarayonida ijroiya hokimyat organlari "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq mablag'larni sarflashning har bir yo'nalishi bo'yicha xarajatlarning byudjet tasnifi moddalari bo'yicha mablag' ajratishning tasdiqlangan chegaralarida o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

G'aznachilik organlariga ijroni tashkil etish va byudjetlarni ijro etish byudjet hisobvaraqaalari va byudjet mablag'lari boshqarish vazifasi yuklatiladi. o'z mohiyatiga ko'ra ular barcha byudjet mablag'lari oluvchilar va ularni tasarruv etuvchilarning kassirlari hisoblanib, byudjet mablag'lari oluvchilarning nomidan va ularning topshirig'iga ko'ra byudjet mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshiradi.

Byudjetni ijro etish uchun g'aznachilikda byudjetlar, daromadlarning har bir manbasi bo'yicha har bir byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchisi va oluvchisi uchun shaxsiy hisobvaraqaalar ochiladi. G'aznachilik byudjetga byudjet taqchiligini moliyalashtirish manbalaridan daromdlar va tushumlarning kelib tushishi, shuningdek byudjet xarajatlariga ruxsat berish va ularni to'lash bilan bog'liq barcha operatsiyalarni g'aznachilikni bosh kitobida ruyxatga oladi va budjetdan mablag' oluvchilarning yig'ma reestirini (ro'yxatni) yuritadi.

Byudjetning kassa ijrosi kassani rejalashtirish, ya'ni g'aznachilik tomonidan daromadlar va xarajatlar bo'yicha reja, shuningdek mablag' jalb qilish rejasining tuzilishidan va byudjet mablag'larini boshqarishda boshlanadi.

Daromadlar bo'yicha katta rejasi daromadlarning tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichlari amaldagi tushumlar va o'tgan davr ma'lumotlari asosida tuziladi. Xarajatlar bo'yicha kassa rejasi smetasi asosida, shuningdek byudjet mablag' oluvchilar xarajatlarining buyurtmasi buyicha yuziladi. Byudjetning daromadlari va xarajatlari o'tasidagi vaqtinchalik uzilishlarni qoplash uchun mablag'qilish rejasi tuziladi. Uzilishni qoplash uchun kreditlar jalb qilinadi va qisqa muddatli davlat obligatsiyalari chiqariladi.

Daromadlar bo'yicha byudjet ijrosi quyidagi operatsiyalar bo'yicha amalga oshiriladi:

- a) Byudjet daromadlar tushunchalarini manbalari bo'yicha byudjetning yagona xisob varag'iga o'tkazish va kiritish;
- b) Tasdiqlangan byudjetga muvofiq tegishli byudjetlarning darajalari bo'yicha unumdavlat tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash;
- c) daromadlarning ortiqcha to'langan summalarni qaytarish;
- d) davlat byudjetining daromadlari xisobini yuritish tasnifiga muvofiq hisobotlarini tuzish.

Barcha operatsiyalarni byudjet mablag'larining xisobini yuritish bo'yicha shaxsiy xisob varag'larida davlat maqsadli jamg'armalari shaxsiy xisob varog'larida qayd etiladi, hamda soliq to'lovchilarga ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlar va yig'imlar byudjetlarning shaxsiy xisobvarag'laridagi mablag'lar qoldig'i darajasida qaytariladi.

1.2. Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini joriy etish bosqichlari.

Yagona g'azna hisobvarag'ining ishlash kansepsiyasi avtamatlashtirilgan integratsiyalash gan g'aznachilik tizimi barpo etilib, barcha joylarda Markaziy bank muassasalari, g'aznachilik organlari va soliq organlari electron to'lovlarga o'tgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin.

Yagona hisobvarag'iga asoslangan mukammal davlat byudjetining g'azna ijro tizimini joriy etish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

O'tish bosqichida quydagi tadbirlar amalga oshiriladi;

1. Budjet mablag'lari oluvchilari bilan tavarlar (ishlar va xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shatnomalarni ro'xatga olish va ular xarajatlarining to'lanishini nazorat qilish.
2. Respulika va hududiy g'azna hisobvaraqlarini ochish.
3. Barcha byudjet muassasalari va tashkilotlarini g'aznachilik organlarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarga o'tkazish.
4. Buydjetning kassa ijrisi funksiyasini banklardan g'aznachilik organlariga o'tkazish.

Endi ushbu tadbirlarning mazmunini batafsil ko'rib chiqamiz.

“Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi Qonun 7-moddasi” g'aznachilikning asosiy vazifalari asosiy vazifalardan biri sifatida byudjet tashkilotlarining tavarlar yetkazib berish, (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun tuzadigan shartnomalarini, shuningdek byutmachilarning davlat byudjet mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzadigan shartnomalarini ro'yxatga olishni belgilaydi. Huquqiy majburiyatlar shartnomalar kelishuvlar, qonunchilik qarorlari (masalan imtiyozlar), sud qarorlari (jarimalar) yoki bir tomonlama qarorlar (masalan grandlar) ga muvofiq namoyan bo'ladi.

Majburiyat-bu fuqoralik huquqiy munosabat bo'lib, ma'lum bir shaxs qarizdor bashqa bir shaxs (kriditor) maanfati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirilishi, ya'ni mol-mulikni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lovlarni amalga oshirish yoki ma'lum harakatlardan vos kechish va

boshqalardir. Sharnomalarga asosan vujudga keladigan majburiyatlar fuqoralik kodiksi talablarda kelib chiqadi. Buyudjet ijro tizimida majburiyatlarni qabul qilish bu byudjet tashkiloti tomonidan smeta xarajatlarida ko'da tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish harakatidir.

Majburiyatlarni hisobga olishda 3 asosiy factor muhim hisoblanadi, ya'ni; majburiyatlarni qabul qilish asoslari, majburiyat qabul qilish huquqiga ega javobgar shaxslar va majburiyatning 2 xil turi: huquqiy va moliyaviy:

Majburiyatlarni qabul qilish asoslari quydagilardan iborat:

- kontrakt va sharnomalar imzolash asosida (tendir bo'yicha xaridlar, Tovar va xizmatlar sotib olish, qarizdorlik bo'yicha shartnomalar, patentlar I letsinziyalar, sug'urta va boshqalar);

- qonuniy asos mavjudligi (stipendiya, nafaqa pullari va boshqalar);

- davlat vakolatli organlari qarorlari (jarimalar I-sud qarorlariga asosan penyalar);

- bir tomonlama qarorlar (datatsiyalar, grandlar, mukofatlar);

Majburiyatlarni qabul qilish huquqiga ega javobgar shaxslar:

- majburiyatlarni qabul qilish byudjet mablag'larini oluvchi vazifasiga kiradi.

- byudjet mablag'lari oliuvchi byudjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi.

G'aznachilik organlari moliya organlari bilan birgalikda harajatlarni rejalashtirishni vaqt bo'yicha optimal tarzda o'tkazishi, hisobvaraqlarida ulari bo'yicha muntazam qoladigan qoldiqlar moddalar bo'yicha moliyalash so'mmasini qisqartirishi mumkin va noqonuniy majburiyatlar qabul qilishning oldini oladi.

Huquqiy majburiyatlar qachonki organlar tomonidan ro'yxatdan o'tganidagina huquqiy asosga ega bo'ladi.

Huquqiy majburiyatlarni ro'xatga olishda g'aznachilik organlar huquqiy majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun tasdiqlovchi xujjatlarni tekshiradi va aynan ushbu bosqichda subyektlar huquqiy jixatdan haqiqiy bo'lishadi.

G'aznachilik huquqiy majburiyatlarning ro'yxatga olinganligi to'risidagi axborati byudjet tashkilotlariga ularning byudjet va byudjetdan tashqari

mablag'lari bo'yicha yetkazdi. Huquqiy majburiyatlar bilan byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan tasdiqlangan oylarga bo'lingan byudjet tasnifiga muvofiq to'lovlar jadvali qabul qilinadi. To'lovlarni amalga oshirishning navbatma-navbatligi taxminan qo'ydagi tarzda namoyan bo'ladi:

- foizlarni to'lash;

- qarizlarni qaytarish;

- to'lovlar va xizmatlardan foydalanish bo'yicha (hususan communal xizmatlar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi, boshqa tarmoqlar va tabiiy yetkazib berishlar bo'yicha to'lovlar).

To'lovlar jadvaliga muvofiq byudjet tasnifning alohida moddolari ustivor to'lovlar maddalari sifatida belgilanadi. Byudjet tashkilotlari to'lovlarning navbatma-navbatligi buzilmasligini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

Majburiyatlar bo'yicha me'yoriy xujjatlar huquqiy majburiyatlar qaysi asosida o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkinligini belgilab beradi. Byudjet tashkilotlari g'aznachilikka huquqiy majburiyatlarni o'zgartirish (bekor qilish) to'g'risida ariza berib, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha huquqiy majburiyatlarni o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin.

Huquqiy majburiyatlar (shartnomalar, kontraktlar va h.k) ni ro'xatgab olish:

- xaridlar qiymatini pasaytirish (albatta, tanlov bo'yicha narx chakana jadvaldagi narxdan past);

- muassasalar rahbarlari tomonidan suiiste'mollik holatlari sodir etilishi exitmollarni passaytirish;

- tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni harid qilishdan qa'tiy smetaga muvofiq nazorat qilish;

- tuziladigan shartnomalarni ularning qonun xujjatlariga mos kelishi nuqtai nazardan tekshirish;

- kreditorlik va debitorlik qarzlarning o'sib ketishga yo'l qo'ymaslik maqsadida tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'lovlar muddatini nazorat qilish imkonini beradi.

O'z navbatida, byudjet muassasalarining barcha shartnomalarini majburiy ro'xatga olishni joriy etish (shartnomalarning yagona reestrini barpo etish) lozim. Reestr shartnoma raqami va unin tuzish sanasi, ushbu shartnoma doirasida mablag'lar sarflanadigan iqtisodiy moddani, shartnoma predmetini (Tovar, ish yoki xizmat), shartnoma bo'yicha kontragentni shartnoma bo'yicha to'lov muddatini o'z ichiga olishi shart.

Ro'xatga olishning bunday reestri mavjud hollarda iqtisodiy tasnif moddalari doirasida kassa rejaralarning prognozini tuzish, to'lov topshiriqlarining xaqiqiylikini tekshirish va to'lov topshiriqlarning rekvizitlari shartnomalarga mos kelishni avtomatik tarzda taqqoslash mumkin, bu xatolar sonini kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, shartnomalarni ro'yxatga olish to'lov vaqtini nazorat qilish va shartnomalar bo'yicha asossiz to'lovlarning oldini olish imkonini beradi. Albatta, shartnoma bo'yicha to'lov faqat ishlarning bajarilganligini, tavarlarning yetkazib berilganligini rasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi kerak.

Moliyaviy majburiyatlarini (to'lov xujjatlari) hisobga olishning asosiy maqsadi qabul qilingan huquqiy majburiyatlar, tasdiqlangan byudjet rejasi me'yorida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining banklarida deposit, hisobvaraqlarini ochish uchun moliya organlarining talab qilib olinadigan hisobvaraqlarini tegishli g'azna hisobvaraqlari deb qayta nomlanadi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning to'lov topshiriqlari asosida ularning talab qilib olinadigan dipozit hisobvaraqlardagi qoldiqlar xizmat ko'rsatuvchilari banklar tomonidan g'aznachilik hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

G'azna hisobvarag'i (keying o'rinlarda G'H)-bu bankda ochiladigan va byudjet daromadlarini o'tkazish va xarajatlarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan maxsus bank umumiy hisobvarag'i. G'azna hisobvarag'i tegishli byudjetlarning yagona hisobvarag'i bo'lib, byudjet mablag'lari oliuvchilarning

byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlarini to'lashga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan.

Fuqoralarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla qo'mitalari) tomonidan tayinlangan nafaqalarni to'lash uchun mablag'larni o'tkazish, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish, byudjetdan kapital qo'yilmalarni to'lash, shuningdek byudjet mablag'lari oluvchilarning smetalari bo'yicha xarajatlarni to'lash belgilangan me'yoriy xujjatlarga muvofiq g'aznachilik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi.

G'aznachilik hisobvarog'idan xarajatlarni to'lash O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrda 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan yaminlash yartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xarajatlarning to'rtta guruh bo'yicha amalga oshiriladi.

Byudjetning g'azna ijrosi o'tgan byudjet mablag' oluvchilarning kredit qarzlarini to'lash g'azna hisob varog'idan xarajatlar smetasiga muvofiq va xarajatlarni to'lash ruxsatnomasi, shuningdek qarzдорlikni tasdiqlovchi boshqa xujjatlar asosida amalga oshiriladi. Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha buxgalteriya hisobi yangi ishlab chiqarigan byudjet ijrosining hisobini yuritish hisobvaraqlarining ysgona rejasi bo'yicha yuritiladi.

Tegishli byudjet g'azna ijrosining hisobi yuritilishi munosabati bilan byudjet mablag'lari oluvchilarning banklarda ochilgan talab qilib olinadigan deposit hisobvaraqlari yopilishi lozim.

Byudjet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilarga)ga mablag'lar ajratilishi va ularning xarajatlari bo'yicha operuyatsiyalar hisobini yuritish maqsadida g'aznachilik organlarida Davlat byudjetining tasnifi bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarning quyidagi turlari ochiladi va yuritiladi:

a) byudjet mablag'lari taqsimlovchi uchun yuridek shaxs maqomiga ega bo'lmagan quyi tashkilotlar uchun ko'zda tutilgan tasdiqlangan rejali byudjet mablag'lari ajratilishining hisobini yuritishga mo'ljallangan shaxsiy hisobvarog'i;

b) byudjet mablag'lari oluvchilarning g'aznachilik organida shaxsiy hisobvarog'i quyidagilarni o'z ichiga oladi. Byudjet mablag'larini saqlab turish va

markazlashtirilgan tadbirlar uchun xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan tasdiqlangan rejali byudjet mablag'lari;

c) ro'yxatga olingan shartnomalar, xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnoma kassa xarajatlari.

Bundan tashqari har bir moliyalash talab qilinadigan holatlar uchun ham hisobvaraqlar ochilishi mumkin. (kapital qo'yilmalar bir martalik subsidiyalar, datatsiyalar va boshqalar).

G'aznachilik organlari moliya organlarida tasdiqlangan smetalar yoki byudjet mablag'lari taqsimlovchi lar yomonidan tasdiqlangan dastlabki smetalarni ro'yxatga olingan shartnomalar summalarini byudjet mablag'lari oluvchiga berilgan xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalarni kiritish yo'li bilan byudjet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilar) xarajatlarining tasdiqlangan smetalari asosida, ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda aks ettiriladi.

Byudjet mablag'lari taqsimlovchilar (Oluvchilar) xarajatlarining smetasiga o'zgartirishlarkiritishda kiritilgan aniqliklar belgilangan tartibda byujet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilar) shaxsiy hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Byujet mablag'lari oluvchiga berilgan xarajatlarni to'lasdhga berilgan ruxsatnomalar (XTR)lar summolari tog'risidagi axborot berilgan. XTR lar hisobini yuritishdan olinadigan ma'lumotlarasosida aks ettiriladi. XTR lar tasdiqlangan rejali byujetdan mablag' ajratish summolari doirasida beriladi.

Tovarlar (ishlar xizmatlar) yetkazib berish uchun ro'yxatga olingan shartnomalar summolari to'g'risidagi axborot byujet mablag'lari taqsimlovchi (oluvchi) shaxsiy hisobvarag'ining byujet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilar) tovsrlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni ro'yxat ma'lumotlari asosida aks ettiriladi.

Byujet mablag'lari taqsimlovchi (oluvchilar)ga berilgan XTR lar doirasida amalga oshirilgan kassa xarajatlari to'g'risidagi axborot bank muassasasida ochiulgan g'azna hisob varag'i dagi mablag'larning harakati to'g'risidagi bank ko'chirmalaridanolingan ma'lumotlar asosaida aks ettiriladi.

Moliya organlari tegishli byujetlarning daromadlar va xarajalar ro'yxatini, byujet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilar) xarajalarning smetalarini, shuningdek moliya yili mobaynida ro'yxatga va xarajalar smetalariga kiritilgan o'zgarishlarni taqdim etadilar.

Tegishli byujetlarning daromadlari va xarajalari ro'yxatiga, shuningdek byudjet mablag'lari taqsim qiluvchilar (oluvchilar) xarajalarining smetalariga kiritilgan, o'zgartirishlar g'aznachilik organlariga ular tegishli xujjatli rasmiylashtirilganidan so'ng bir ish kuni ichida yetkaziladi. O'zgarishlar davlat byudjeti xarajalarining byudjet tasnifiga muvofiq moddalar bo'yicha bo'lingan holda yetkaziladi.

Soliq to'lovchilar byudjetga soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda o'tkazishlar shart. Hozirgi vaqtda soliq tushumlari joylarda soliq va bojxona organlarining transit hisobvaraqlariga kelib tushib so'ngra me'yoriy ajratmalarga muvofiq byudjetning respublika, viloyat va tuman yoki shahar bank hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Respublika (RG'H) va hududiy g'azna hisobvaraqlari hududiy g'azna hisobvaraqlarini ochish sharoitida g'aznaning hududiy organlari tomonidan soliqlar va to'lovlarning har bir turi uchun shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi.

1.3. G'aznachilikning funksiyalri va vazifalari

Ma'lumki, byudjet jarayonining asosiy bosqichlaridan bir davlatning moliyaviy nazorati hisoblanadi. Byudjetni iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan ko'pqirrali aloqalarni byudjet ko'satkichlarining aniq adresli xarakteri ifodalaydi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida to'g'ri ishlatilishini nazorat qilishga asos yaratadi.

Byudjet daromadlari va xarajatlarining ko'rsatkichli tizimi orqali nazorat qilinadi.

Bugungi kunda moliya byudjet, soliq intizomiga yetarli darajada rioya qilinmayotganligi va byudjet mablag'larini maqsadsiz ishlatilishida ko'p sonli xolatlarning mavjudligi barcha mamlakatlarda davlat nazoratini ko'chaytirishni zarurligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotni rivojlangan hech bir mamlakat yo'xki, moliya soxasida davlatning nazorat organlari mavjud bo'lsin.

Jaxon tajribalari shuni ko'rsatadiki, qonuniylik, ob'yektivlik, erkinlik va mustaqillik moliyaviy nazoratni tamoyillari hisoblanadi. Moliyaviy nazorat instituti davlatning nazorat organlarining umumiy tuzilishini o'zida mujassamlashtiradi, va moliyaviy mexanizimning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy nazoratning mohiyati uning bajaradigan vazifalari va funksiyalarida ko'rinadi.

Davlatning moliyaviy nazoratining vazifalari quydagilardan iborat;

- byudjetni to'g'ri tuzishni va ijro qilishni ta'minlaydi.
- buydjet va soliqqa doir qonun xujjatlariga rioya qilish.
- byudjet va byudjetdan tashqari fondlarning mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishini tekshirish.
- byudjet va soliq intizomiga rioya qilishni yaxshilash.
- byudjetlararo munosabatlar mexanizmining realizatsiyasini nazorat qilish.
- banklar va boshqa kredit tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari fondlarning mablag'larini aylanishini tekshirish.

- mintaqalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda maqsadli byudjet jamg'armalarning shakillanishini va taqsimotini nazorat qilishdan iborat.

Davlatning moliyaviy nazoratining funksiyalariga quydagilarni kiritish mumkin:

- davlat byudjet mablag'larini xarajat qilinishini nazorat qilish;
- davlat mulkini xususiylashtirishni davlat va xususiy mulkni samarali ishlatilishni moliyaviy nazorat qilish byudjetdan tashqari fondlarning mablag'larini ishlatilishini nazorat qilish;
- banklarda va boshqa kredit tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari fondlarning mablag'larini aylanishini nazorat qilish;
- soliqqa tortishda imtiyozlarni ishlatilishni qonuniyligini nazorat qilish;
- davlat byudjetidan ajratiladigan subvensiya, dotatsiya, ssuda va boshqalarni berilishini nazorat qilish.

Respublikamizda daromadlarning yetishmasligi va o'z vaqtida to'shmasligini e'tiborga olgan holda mavjud byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida g'aznachilik tizimiga o'tish, bunda moliyalashtirish va kassa xarajatlarini amalga oshirish jarayonlarini birlashtirish natijasida byudjet mablag'larini byudjet tashkilotlarining bankdagi hisobraqamida qoldiq sifatida qolishini bartaraf etishi mumkin.

Joxon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dasturlarni moliyaviy ta'minlash va davlat mablag'lari foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish ishda g'aznachiliksiz muvofaqqiyatga erishib bo'lmaydi. G'aznachilikni joriy etish davlat mablag'larini boshqarish tizimning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. G'aznachilik organlarining asosiy vazifalaridan biri byudjet mablag'larini maqsadli va samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

G'aznachilik organlarining asosiy vazifalaridan biri byudjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishini nazorat qilish hisoblanadi.

O'zbekistonda yaratilayotgan markazlashtirilgan g'aznachilik tizimi g'aznachilikning yagona hisobraqamida mablag'larni markazlashtirishni, shuningdek byudjet ijrosining nazoratini va hisob-kitobni ko'zda tutadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi amalda ishlayotgan g'aznachilikning yagona hisobraqami konsepsiyalardan va kassadagi naqd pul oqimlarini va pul operatsiyalarni ushbu variant O'zbekistonga mos keladi. Bunda faol g'aznachilikning yagona hisobraqami faoliyat ko'rsatadi, va markazlashtirilgan buxgalteriya nazorati amalga oshiriladi.

Barcha byudjet mablag'lari g'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi, to'lovni amalga oshirish uchun so'rovnoma va uni tasdiqlaydigan xujjatlar g'aznachilikka yo'naltiradi, g'aznachilik nazorat qiladi to'lovlarni rejalashtiradi va to'lovni amalga oshiradi.

G'aznachilik o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quydagi funksiyalarni bajaradi:

1. Milliy va chetel valyurtasidagi davlatlarning moliyaviy resurslarni to'plash, davlat byudjeti tushumlari va xarajatlari hajmining qisqa muddatli prognozlarni ishlab chiqadi;

2. Sertifikat berish asosida respublika va mahalliy byudjet mablag'larni, shuningdek davlatlarning maqsadli jamg'armalari mablag'larini sarflashni amalga oshiradi;

3. Davlatning pul oqimlarni kirish chiqish qoldig'ini boshqarish, g'aznachilikni yagona hisobraqamidagi mablag'larni samarali ishlatishni amalga oshiradi;

4. Davlat byudjet bo'yicha g'aznachilikning yillik va oylik hisobatini tayyorlash va nashir qiladi, g'aznachilikning me'yoriy xujjatlarni tasdiqlaydi va uni ijrochilarga yetkazadi;

5. Moliya vazirligining topshirig'iga binoan davlat ichkaridan ham tashqaridan ham qisqa va uzoq muddatli mablag'larni jalb etadi;

6. Davlat byudjeti deportamenti va moliya vazirligining boshqa bo'linmalari bilan birgalikda "byudjet tizimi to'g'risida"gi qonun ijrosini nazorat qiladi, byudjet tasnifiga muvofiq g'aznachilik hisobraqamlarini ochadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilishicha, g'aznachilik o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari mahalliy davlat hokimiyati

organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi.

Mazkur organlar va tashkilotlar davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag'larini boshqarishda, davlat byudjeti mablag'larning tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda g'aznachilikka ko'maklashishlari shart.

Davlat byudjetining ijrosi top'g'risidagi hisobat g'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga taqdim etiladi.

II –bob. Davlat byudjetining g'azna ijrosi funksiyalari

2.1 G'aznachilik tizimida to'lovlarni amalga oshirish tartibi

Bozor iqtisodiyotida davlatning moliyaviy resurslari boshqarish ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli respublikamizda Davlat byudjet ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati paydo bo'ladi. G'aznachilik bu moliyaviy resurslarni boshqarishga bo'lgan yangicha qarashdir, byudjet barcha daromadlarni jamlash va taqsimlashdagi yangicha tamoyil va mexanizmlarini amalda qo'llashdir.

G'aznachilik davlat byudjet ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora soliqlar yig'ilishini va ulardan foydalanishni ta'minlaydi. Mablag'lar ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shuningdek davlatning tashqi va ichki qarzlarini hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, byudjetdan tashkilotlarining byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, byudjetdan tashqari mablag'lari pul oqimlarning monitoringini yuritib boradi

O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'risida"gi qonunining maqsadi-O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini boshqarishdagi munosabatlarini g'aznachilik tizimi qoidalari asosida tartibga solishdir. G'aznachilik tizimini joriy etishning afzalliklari quyidagilardan namoyon bo'ladi:

- mahalliy byudjetlardan hosil bo'ladigan vaqtichalik kassa uzilishini tezkor tartibga solish uchun yagona g'aznachilik hisobvarag'i orqali mablag'larni hududlar bo'yicha qayta taqsimlash barcha darajadagi byudjet mablag'larining jipslashgan boshqaruvini ta'minlash;

- byudjet tashkilotlari tomonidan g'aznachilik organlari oldida amalga oshirilgan xarajatlarining asosligini tasdiqlash (hiso-fakturalar, yuk xatlari, shartnomalarning mavjudligi, tavarlar, ishlar va xizmatlar me'yorlariga rioya etilishi) mexanizmi joriy etish yo'li bilan ajratilgan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish restidan oldindan va moddalar bo'yicha nazoratni o'rnatish;

- byudjet tashkilotlarining xarajatlari uchun to'lovlarni mablag'larni tasarruf etuvchilar, vazirliklar va idoralarning bank hisobraqamlarini chetlab o'tgan holda, ishlar va xizmat yetkazib beruvchilarining bevosita o'zlariga to'lash;

- byudjet mablag'larini oluvchilar xarajatlarining o'z vaqtida va asosli tarzda to'lanishini ta'minlash hamda byudjet hisobraqamlardagi foydalanilmayotgan mablag'larining surinkali turib qolishiga barham berish;

- barcha darajadagi byudjetlar ijrosi to'risidagi hisobotlarni tayyorlash sifatini yaxshilash va ularni taqdim etish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'risida"gi qonunning qabul qilinishi davlat mablag'larini to'plash ulardan samarali foydalanishni tartibga keltirish bo'yicha muhim qadam bo'ldi. Mazkur qonuniga asosan g'aznachilikning asosiy vazifalari etib quydagilar belgilangan:

- davlat byudjetining kassa ijrosi;
- davlat byudjeti mablag'larining to'shimi va safi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat byudjeti mablag'larini boshqarish;
- davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki ijtimoiy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- byudjet tashkilotlarning tavarlar yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun tuzadigan shartnomalari, byurtmachilarning davlat byudjeti mablag'lari hisobodan kapital qurilish tuzadigan shartnomalarini ro'yxatga olish;
- davlat byudjetining g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi axboratlarni yig'ish qayta ishlash va tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish.

Moliyaviy nazorat uch bosqichda dastlabki, joriy va yakuniy nazorat amalga oshiriladi. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi joriy etishi bilan dastlabki va joriy nazoratni amalga oshirish byudjetdan mablag' oluvchilar bilan birgalikda g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi. Yakuniy nazorat Moliya vazirligining

Nazorat-ta'fif bosh boshqarmasining hududiy boshqarma va bo'limlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlarini (shartnomalarini) hisobga olishini taqoza etadi.

Yuridik majburiyat iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqoralik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarizdor) boshqa bir shaxs manfaatiga ma'lum bir harakatni (mol-mulkni berish, ishbajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash, yoki ma'lum, harakatlardan voz kechish) amalga oshirilishini anglatadi.

Byudjet tizimida majburiyatlarni qabul qilish-bu byudjet tashkiloti tomonidan smeta xarajatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish harakatidir, majburiyat huquqiy me'yoriy xujjatlariga asosan qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qabul qilinadi. Qabul qilingan majburiyatlar so'mmasi tasdiqlangan byudjet mablag'lari me'yoridan oshib ketmasligi lozim.

Shartnomalardagi majburiyatlarni hisobga olish tizimida uch asosiy omil: majburiyatlarni qabul qilish asoslari majburiyat qabul qilish huquqiga ega ma'sul shaxslar faoliyati va majburiyatlarning ikki turi mavjud.

Majburiyatlarni qabul qilish asoslari quydagilardan iborat:

- kontrakt va shartnomalar imzolash asosida tendez yoki tanlov bo'yicha xaridor, Tovar va xizmatlar sotib olish qarzdorlik bo'yicha shartnomalar, patentlar litsenziyalar;

- stepenendiya, nafaqapullari va boshqalar;

- jarimalar va sud qarorlariga asosan penyalar;

- datatsiyalar, grantlar, mukofotlar, majburiyatlarni qabul qilish byudjet mablag'ini oluvchilarning vazifasiga kiradi.

Byudjet mablag'lari oluvchilari yana byudjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi. G'aznachilik bo'linmalarida g'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan barcha byudjetdan mablag' oluvchi tashkiloti rahbarlari va bosh hisobchi imzo namunalari hamda byudjet tashkiloti muhri

namunalari bo'lishi kerak, namunalar g'aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi. Byudjet mablag'lari oluvchi-byudjet tashkilotining raxbari yoki u tomonidan vakolat berilgan ma'sul shaxslar majburiyatlarini qabul qilish huquqiga ega.

Moliyaviy majburiyatni hisobga olishning asosiy maqsadi qabul qilingan yuridik majburiyatlar tasdiqlangan byudjet rajasi meyorida xarajatlarni amalga oshirishni taminlash hamda byudjet tashkilotlarini kreditorlik qarzlarni nazorat qilishdir” taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tavarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tavarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyiladi. Shartnomalarning tuzilish va bajarilish jarayoni qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi. Fuqarolik kodeksi va 1998 yil 29 avgustdagi N 670-I sonli O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida” gi qonuni bu jarayonni tartibga soluvchi eng asosiy qonuniy xujjatdir”. Ikki yoki bir necha shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

Shartnomalarda ushbu kodeksning 9-bobida nazarda tutilgan, ikki va ko'p taraflama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Ushbu qonunning maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida xo'jalik shartnomalarining tuzish, bajarish, o'zgartirishni bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosibatlarni tartibga solishdan iborat. Xo'jalik shartnomalarini tuzish bajarish o'zgartirish bekor qilishning huquqiy asoslari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqi va majburiyatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi va kafolatlarini belgilaydi.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari quidagilardan iborat:

- xo'lik shartnomalarini tuzishni erkinligi;

- taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
- taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.

Xo'jalik shartnomasi qoida tariqasida taraflardan birining shartnoma tuzish haqidagi taklif yo'llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi taklifini qabul qilish yo'li bilan tuziladi. Agar taraflar o'rtasida shartnomalarning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa xo'jalik shartnomasini tuzilgan deb hisoblanadi.

2.2. Kitob tumani g'aznachilik tizimida davlat byudjeti g'azna ijrosining holati va tahlili

Respublikada g'aznachilik tizimi joriy etilishi vaqtinchalik harakatida bo'lmagan byudjetning erkin mablag'larini, samarali moliya bozorlarida joylashtirib, undan olingan daromadni esa byudjet xarajatlarni to'liq moliyalashtirishga, byudjet taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzlarining to'lovini amalga oshirishga yo'naltirish mumkin.

Xususan, davlat byudjetining kassa ijrosini samarali tashkil etish, davlat byudjeti malag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni yanada ko'chaytirish, davlat byudjeti mablag'larini boshqarish orqali davlat byudjetining iqtisodiyotdagi ro'lini yanada ko'chaytirish maqsadida g'azna ijrosini tashkil etadi.

Kitob tumani g'aznachilik bo'limida ham o'zining bir qator vazifalari, funksiyalaridan kelib chiqqan holda tuman g'azna ijrosining foalyatini amalga oshirmoqada.

Biz quydagi kitob tumani g'aznachilik bo'limining tahlili bilan tanishdik ya'ni 2.2.1 jadval ma'lumotlarida keltirilganidek.

Kitob tumani G'aznachilik bo'linmasi 2010-2012 yillarda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish holati. (ming sumda)

2.2.1-jadval

2010 yil			2011 yil			2012 yil			2012 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarishi			
Reja	Kassa	jami summaga nisbatan %	Reja	Kassa	jami summaga nisbatan %	Reja	Kassa	jami summaga nisbatan %	Reja		Kassa	
									ming sum	%	ming sum	%
26541698	26314495	80,9	31367436	31315509	79,4	52935000	52690427	79,2	26393302	50,14017	26375932	49,947
4796841	4770561	14,6	6084506	6028039	15,4	7736177	7653144	11,6	2939336	62,00532	2882583	62,337
60000	60000	0,2	300000	300000	0,8	0	0	0	0		0	0
1401251	1359978	4,3	1758238	1702298	4,4	6118770	6000108	9,2	4717519	22,90086	4758792	22,669
32799790	32505034	100	39510180	39345846	100	66789947	66343679	100	34050157	49,10887	34017307	48,9949

I-guruh Ish haqqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar 2001-yilda 26314495 va 80,9 %, 2012-yilda 31315586 va 79,6 %, va 2013-yilda 52690427 va 79,4 % ni tashkil qilgan.

II-guruh Ish haqqidan ajratmalar 2011-yilda 4770561 va 14,7 %, 2012-yilda 6028039 va 15,3 % va 2013-yilda 7653144 va 11,6 % ni tashkil qilgan.

III-guruh Kapital qo'yilmalar 2011-yilda 600000 va 0,2 % va 2012-yilda 300000 va 0,8 % ni tashkil qilganlar.

IV-guruh Boshqa xarajatlar 2011-yilda 1359978 va 4,2 % 2012-yilda 1708298 va 4,3 % va 2013-yilda 6000109 va 9 % ni tashkil qilgan shu jumladan;

A) Tovar va xizmatlar xarajatlari 2011-yilda 451000 va 100%ni va 2012-yilda 1163489 va 100% va 2013-yilda 1296997,6 va 100% ni tashkil qilgan.

B) Ijtimoiy nafaqalar 2011-yilda 17889,4 va 100% 2012-yilda 19336,8 va 100% 2013-yilda 22554,6 va 100% ni tashkil qilgan

2.2.1 -jadval

**KITOB TUMANI G'AZNACHILIK BO'LIMIDA 2010-2012 YILLARDAGI TO'LOV TOPSHIRIQLARI BO'YICHA
TAHLIL**

T/r	Qabul qilingan yillar	Ro'yhatga o'tkazilgan to'lov topshiriqnomalar		Shundan g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yhatga olinmagan qaytarilgan to'lov topshiriqnomalar		Jami	
		soni	summasi	soni	umumiy summasi	soni	summasi
1	2010 yilda qabul qilingan to'lov topshiriqnomalari	20759	26314495	5810	2828066	26569	29142561
2	2011 yilda qabul qilingan to'lov topshiriqnomalari	19676	31315509	6076	4953720	25752	36269229
3	2012 yilda qabul qilingan to'lov topshiriqnomalari	23518	52690427	5966	3925776	29484	56616203
4	2012 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarishi	2759	26375932	156	1097710	2915	27473642

2.2.2 jadval ma'lumotlarda asosan ro'xatga o'tkazilgan to'lov va topshiriqnomalar 2010-yilda soni 207759 ta va so'mmasi 26314495 so'm 2012-yilda 19676 ta va 31315509 so'm va 2012-yilda 23518 ta va 52690425 so'mni tashkil qilgan. 2012-yilda 2010-yilga nisbatan 2759 ta va 26375932 so'm oshgan. Shundan g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatga olinmagan qaytarilgan.

III bob. Davlat byudjeti g'azna ijrosini takomillashtirish masalalari

O'zbekiston respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimi 2005 yildan boshlab dastlab tajriba, so'ngra keng miqyosda joriy etildi. Unga qadar davlat byudjetining g'azna ijrosi Markaziy bank va tijoraty banklari tomonidan amalga oshirilardi. 2004 yilda xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlikda moliya vazirligi tomonidan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlisga taqdim etildi va ushbu qonun 2004 yil avgust oyida qabul qilindi.

Shuni alohida takidlash joizki, g'aznachilik tizimlari o'z shakli, oldida qo'yilgan vazifalari va mavjud huquqiy asoslari bilan turli davlatlarda turli xil ko'rinishlarga ega. Masalan Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yangi Zillandiya kabi davlatlarda g'aznachilik tizimining "kengaytirilgan funksiyalari" tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimda g'aznachilik idorasi yoki organi davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini ishlab chiqish hamda uni yuritish uchun ma'suldir. O'zbekiston respublikasida esa byudjet xarajatlarini moliyalashtirishni amalga oshirish g'aznachilikni asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda davlat byudjeti g'aznachilik ijrosi tizimining joriy etilishi bilan byudjet mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan amalga oshiriladigan dastlabki va joriy nazorat kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi darajasida g'aznachilik tizimini rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Unda birinchi navbatda davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Mazkur dasturning amaliyotga tatbiq etilishi davlatning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larining real vaqitda to'liq hisobga olishni davlat byudjet ijrosi jarayonining tizimli nazorat qilinishini, davlat byudjet mablag'larining yagona g'azna hisob raqamiga tushgan vaqtdan boshlab, davlat byurmasining so'nggi pudratchi hisob raqamiga kelib tushguncha bo'lgan davrda samarali boshqarilishi ta'minlaydi.

Istiqboldagi vazifa-byudjetning g'azna ijrosi yaratish doirasida davlatning moliyaviy resurslarini samarali va oqilona boshqarish shuningdek byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan samarali nazorat o'rnatishni ta'minlash hisoblanadi.

G'aznachilik tizimining joriy qilinishi natijasida;

- quyi byudjet tashkilotlari tomonidan mablag'larni bosqichma-bosqich moliyalashtirish mexanizmi tugatildi;

- byudjet mablag'larining bankdagi ko'plab hisob raqamlarda tarqalib yotishiga baham berildi;

- mablag'lar g'aznachilik hisob raqamidan jamlandi va buning natijasida to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan ish haqqini to'lash muddatlari qisqardi, byudjet mablag'lari aylanish jarayonining samaraadorligi oshdi;

- byudjet xarajatlarini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan qonun buzarlilar kamaydi. Demak g'aznachilikni joriy etishdan asosiy maqsad davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish ta'sir ko'rsatishdir. G'aznachilik organlari davlat moliyasini boshqarishga taluqli turli vazifalarni bajardi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada takomillashtirish viloyat va tumanlarda mahalliy byudjetkarning yagona g'azna hisobraqamlarini ochib, byudjet mablag'larini samarali va oqilona boshqarish elementlarini joriy etishni taqozo etadi.

G'aznachilikning tegishli bo'linmalaridan byudjet mablag'lari oluvchilar uchun shaxsiy hisob raqamlari ham ochilab, ularda davlat byudjeti mablag'larini oluvchilarning barcha hisob operatsiyalari aks ettirildi. Shuningdek xarajatlarni amalga oshirish uchun dastlabki ruxsatnomalarni chiqarish tizimi joriy etilib, uning doirasida byudjet mablag'larini oluvchilar belgilangan muddatlarda o'zlariga ajratilgan mablag'larni sarflashi mumkin. Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etish bo'yicha vazifalarning amalga oshirilishi ushbu tizimga o'tgan barcha davlatlarda qabul qilingan islohatlar barchasida yuksak iqtisodiy va ijtimoiy samara olishni ko'zlaydi. Barcha darajadagi byudjetlarning g'aznachilik ijrosiga xos xususiyat shundan iboratki, u davlat byudjetini ijro etish jarayoniga uning ishtirokchilariga salbiy ta'sirini istisno etadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining yagona g'azna hisob raqamidan amalga oshirilish g'azna tizimining to'liq joriy etilishini taqozo etadi.

G'aznachilik tizimini to'liq joriy etishdan oldin respublika byudjeti va davlatning byudjetidan tashqari fondlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solish lozim, chunki byudjetdan tashqari mablag'larni ijro etish ham g'aznachilik organlariga yuklatilgan. Bundan tashqari davlatning tashqi va ichki qarzlarini boshqarish byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribalari ko'rsatadiki davlatning ichki va tashqi qarzi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish g'aznachilik idorasi zimmasiga yuklatilgan. Bu esa g'aznachilik organlari faoliyatining keng qamrovli ekanligini davlat ochib beradi.

Shuningdek, g'aznachilik organlari davlat byudjeti defisitini qoplash maqsadida hukumat qimmatli qog'ozlarini emissyo, qilish hajmi turlari va muddati bo'yicha ham taklif beradilar;

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdalarki amaldagi meyoriy xujjatlarga muvofiq byudjet tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari (ish haqi va unga nisbatan hisoblashlar) g'aznachilik organlari tomondan qattiq nazorat qilinmoqda. Ammo xarajatlarining 4-guruhi bo'yicha (kapital tamirlash, oziq ovqat, boshqa xarajatlar) mablag'larni xarajat qilishni nazorat qilishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapdi.

Hozirgi davirda g'aznachilik organi tomonidan boshqa xarajatlar guruhidagi 5 ta xarajat moddasi bo'yicha byudjet intizomining buzilishi, holatlari aniqlanmoqda. byudjetning boshqa xarajatlari bo'yicha ham g'aznachilik tomonidan dastlabki va joriy nazoratning amalga oshirilishi davlat byudjeti g'aznachilik ijrosi tizimini takomillashtirishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim. Mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan umum ta'lim maktablarning malakali buxgaltirlari bilan ta'minlanmaganligi byudjet mablag'larini simetada ko'rsatilmagan maqsadlarda foydalanish hollarining yuzaga

kelishiga sabab bo'lmoqda. G'aznachilik organlari ushbu holat bo'yicha, nazoratni ko'chaytirishlari lozim.

Respublikamiz Markaziy bankning tuman va shaharlarda, filiallari bo'lmaganligi sababli davlat byudjetning g'azna ijrosi jarayonida g'aznachilik bilan tijorat banklari o'rtasidagi o'z aro hamkorlikning ahamiyati yanada oshadi. Shu sababli, fikrimizcha tijorat banklarining byudjet ijrosini amalga oshirishda manfaatdorligini ko'chaytirish maqsadida ularning byudjet ijrosini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlari pullik asosida tashkil etilishi lozim. Hozirgi kunda tijorat banklarining davlat byudjeti ijrosi bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xizmatlarga haq to'lolmaydi.

Bu esa tijorat banklari tomonidan byudjet tashkilotlariga ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir guruh iqtisodchi olimlar tomonidan davlat byudjetining g'azna ijrosini maxsus tashkil etilgan bank orqali amalga oshirish taklif qilinadi. Fikrimizcha, byudjet g'azna ijrosini amalga oshirish maqsadidagina alohida bank tashkil qilish katta miqdorda xarajatni talab etadi. Chunki ushbu bank respublika bo'yicha keng yoyilgan ko'p sonly filiallari tarmog'iga ega bo'lishi lozim. G'aznachilik organing respublikasi bo'yicha ko'p sonli, hududiy jihatdan keng yoyilgan filiallar tarmog'iga ega bo'lgan tijorat banklar bilan shartnomaviy asosda byudjet ijrosini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish tizimi orqali iqtisodiy munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Davlatning o'z vazifa va funksiyalarini bajarish hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkon beradigan vositalardan biri Davlat byudjetidir.

Davlat byudjeti iqtisodiy vosita sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishga son va sifat jihatdan ta'sir etishga qodir. Son jihatdan ta'sir etish davlat byudjet moliyaviy resurslarini proporsiyalar bilan taqsimlash bilan belgilansa sifat jihatdan ta'sir etish esa qayta ishlab chiqarish jarayonida ishtirokchilarning moliyaviy holatiga moliyaviy munosabat shakillarini tashkil qilish bilan belgilanadi. Davlat

ixtiyorida markazlashtirilgan pul jamg'armalarining samarali ijrosi davlat yuritayotgan siyosatning muvaffaqiyatli bo'lishi imkoniyatini beradi.

Davlat byudjetining kassa tushumining haqiqatda tushishi va mablag'ning haqiqatda chiqishi ijrosi mamlakat zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini ijro etishning muhim mexanizmi hisoblanib. G'aznachilik tizimida byudjetining kassa ijrosi yagona yoki hududiy, hisobvaraqlariga pul tushumlari va undan amalga oshiriladigan xarajatlar moliyaviy jarayonlarini o'z ichiga oladi. Byudjet kassa ijrosining mohiyati va afzalligi daromadlarining *лудши* tushishi va xarajatlarning amalga oshirilishini barqarorlashtirishdan iborat. Ushbu jarayon Davlat byudjetining kassa ijrosini rejalashtirish va boshqarishining murakkab tizimini o'zida mujassam etadi va o'z navbatida, davlat byudjetini ijrosini rejalashtirish mexanizmini talab etadi.

Rejalashtirishning asosiy maqsadi xatto qarorlar qabul qilish xavfini pasaytiruvchi vositalar va muqobil variantlarni aniqlashdan iborat, bo'lib birinchi vazifasi, tezkor rejalarning taxminiy variantlarini ishlab chiqish bo'lsa, ikkinchisi, moliyaviy mablag'larga bo'lgan muayyan ehtiyojni aniqlash va ularni prognoz qilishdan iboratdir.

Byudjet ijrosini rejalashtirish kassa tushumlari va kassa to'lovlarining muvofiqligini ta'minlash hamda mablag'larini jalb qilish rejalarini ishlab chiqarishga asoslangan bo'lib byudjetning daromatlari va xarajatlari kassali rejalashtirish va pul mablag'larini kassali boshqarishdan iboratdir. Byudjet kassali rejalashtirish bu daromad tushumlari prognozlari xarajat rejalarini yig'indisi hamda ularga tuzatishlar kiritishning tezkor mexanizmidir.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgai bosqichida byudjet tizimida olib borilayotgan islohatlar dan ko'zlangan asosiy maqsad byudjet mablag'laridan.

Yanada samarali va maqsadli foydalanishga erishish, davlat moliyasi to'g'risida obyektiv va to'g'ri ma'lumotlarni shakilllantirishda moliya institutlarining faolyati oshirishga qaratilgan.

Shu boisdan ham davlat byudjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish zamonaviy axborat texnologiyalardan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajadagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samardorligini oshirishda O'zbekiston respublikasi prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli qarori muhim ahamiyat kasb etib, mazkur sohada olib borilayotgan islohatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak. Yagona g'aznachilik hisob raqamiga o'tilganda davlat byudjetining kunlik barcha daromadlari va xarajatlari ushbu hisob raqamda ko'rinadi.

Bunda davlat ishlatilmay turgan mablag'larini, shuningdek barcha turgan daromadlardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari hisobatlarni tezkor tarzda amalga oshirish, shuning bilan birga debitor va kreditor qarizdorlikka chek qo'yish, hisobatlarni soddalashtirish, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasida tasdiqlangan xarajatlarini byudjet tasnifi bo'yicha qilinishi nazorat qilish byudjet tashkilotlari uchun olinadigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tuziladigan shartnomalarni qonuniy tuzilishi, tavarlar yoki xizmatlar sifatli bo'lishi uchun tenderlar va tanlovlar orqali shartnomalar tuzish, byudjet mablag'ini aniq maqsadlar uchun sarflanishini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki davlatimiz bosh qomusi-O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida "davlatning maqsadi fuqoralarning tinch va farovan

yashashlari, mehnat qilishlari dam olishlar, daromad olishlari, saylash va saylanish huquqlarini himoya qilishdan iboratdir” deya itirof etilgan.

G’aznachilik boshqarmasida ichki nazorat sektorining faolyatini kengaytirish sektor mutaxassislarining javobgarligini oshirish kerak. Ular tomondan amalga oshirilgan nazorat ishlari ma’lum davrda qayta tekshirishdan utkazilib, baho berilishi zarur. G’aznachilik bo’yicha o’rnatilgan tartibga rioya qilmagan tashkilotlarga hamda ma’sul xodimlarga nisbatan ichki nazorat sektori tomonidan chora tadbirlar qo’llanilishi lozim. Moliya vazirligi g’aznachiligi tomondan 9 xil mahsulotga belgilanayotgan o’rtacha narxlar ma’lumotiga “agar hududiy bozor narxlari belgilangan narxlarga nisbatan past bo’lsa bozor narxlari ma’lumot uchun qabul qilingan” jamlari kiritilishini taklif qilamiz.

Chinki belgilangan narxlar 1 oy muddatga berilgan bo’lib, bu orada hududiy bozor narxlari past bo’lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. O'zbekiston 2008 yil
2. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni Q13son 2.09.1993 yil
3. "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 14.12.2000 yil
4. Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 26.08.2004 yil
5. "Byudjet tizimi to'g'risidagi" va "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 12.12.2007 yil

II O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmonlari va qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Davlat byudjetining g'azna ijrosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 28.02.2007 yil 594-son
7. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining xo'jalik organlarining boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risidagi farmoni 22.12.2003 yil

III O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 144-sonli "Davlat moliyasini isloh qilish loyihasini tayyorlash choralari to'g'risida"gi qarori 26.04.2002 yil
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori 03.09.1999 yil
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20-martdagi 53-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining g'aznachiligi to'g'risidasi"gi nizomi tasdiqlangan to'g'risidagi qarori.

IV O'zbekiston Respublikasining Prezidenti asoslari.

11. Karimov I. A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li T. O'zbekiston 2007 yil
12. Karimov I. A. "Bank tizimi, pul muomalasi kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida"gi T. O'zbekiston nashriyoti 2005 yil 525 bet.
13. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T. O'zbekiston 2008 yil V O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining me'yoriy xijatlari.
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat buydjetining kassa ijrosi to'g'risidagi yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2001 yil 19 fevralda 1009 son bilan ro'yxatga olingan)
15. Malikov T.S. Haydarov.N. moliya umum davlat moliyasi T. moliya 2009 yil
16. Qosimov G. g'aznachilik faoliyati tashkil etsh o'quv qo'llanma T. "Iqtisod moliya" 2008 yil 372 bet.

Internet saytlari

www.soliq.uz

www.cer.uz

www.norma.uz

www.mf.uz